

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat

oliy ta’lim tashkiloti professori

Email: gulnoz68@mail.ru

ZIGMUND FREYD RUHIY TAHLILIDA INSONIY RUHIYATNING TUZILMASI

Annotatsiya: XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiya falsafadan ajralib chiqib, mustaqil fanga aylangan, uning asosiy maqsadi laboratoriya sharoitida introspeksiya (o‘zini o‘zi kuzatish) usuli yordamida katta yoshdagi odam ruhiy hayotining asosiy elementlarini ochishdan iborat bo‘lib qoldi. Keyinchalik psixologiyada strukturaviy (tuzilmali) maktab deb nom olgan bu yo‘nalishga 1879 yili Leypsigda birinchi psixologik laboratoriya tashkil qilgan Vilgelm Vundt asos solgandi. Vundt psixologiyaning asosiy vazifasi sifatida ong jarayonini qismlarga ajratish va ular o‘rtasidagi qonuniyat bog‘lanishlarini o‘rganishni taklif qildi. Shuning uchun venalik yosh vrach Zigmund Freyd tomonidan hech kimning yordamisiz ishlab chiqilgan odamlarni o‘rganishning butunlay yangi yondashuvi paydo bo‘lganda o‘sha davrning psixologlari karaxt holatga tushib qolishdi. Odam psixik hayotining markaziga ongni qo‘yish o‘rniga Freyd uni ozgina qismi suvning tepasiga chiqib turgan aysbergga qiyoslaydi. Shu davrgacha hukmronlik qilib kelgan odamga o‘z xulqini anglay oladigan aqlli mavjudot sifatida qarashlarga zid ravishda, u boshqacha nazariyani taklif qildi: odamlar doimiy ziddiyat holatida bo‘lishadi va bu ziddiyatlarning sababi butunlay boshqa, ruhiy hayotning yanada kengroq sohasi bo‘lgan – anglanmaydigan jinsiy va agressiv mayllardadir.

Kalit so‘zlar: ruhiy tahlil, ongsizlik, onglilik, libido, U, ong osti, ong oldi, oliy ong.

Рузматова Гулноз Мирахраровна

профессор “ALFRAGANUS UNIVERSITY”

негосударственное высшее учреждение образования

Email: gulnoz68@mail.ru

СТРУКТУРА ПСИХОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА В ПСИХОАНАЛИЗЕ

ЗИГМУНДА ФРЕЙДА

Аннотация: Во второй половине XIX века, когда психология отделилась от философии и стала самостоятельной наукой, ее основной целью стало выявление основных элементов психической жизни взрослого человека методом самоанализа в лабораторных условиях. Вильгельм Вундт основал первую психологическую лабораторию в Лейпциге в 1879 году. Вундт предположил, что основная задача психологии - разделить процесс сознания на части и изучить закономерные связи между ними. Поэтому, когда появился совершенно новый подход к изучению людей, разработанный молодым венским врачом Зигмундом Фрейдом без чьей-либо помощи, психологи того времени впали в состояние оцепенения. Вместо того чтобы поставить сознание в центр психической жизни человека, Фрейд сравнивает его с айсбергом, лишь небольшая часть которого торчит из воды. Вопреки господствовавшему до сих пор представлению о человеке как о разумном существе, способном понимать собственное поведение, он предложил иную теорию: люди находятся в постоянном состоянии конфликтов, причем причина этих конфликтов лежит в совершенно иной, более широкой области.

Ключевые слова: психоанализ, бессознательное, сознательное, либидо, Оно, подсознание, передсознание, сверх сознание.

Ruzmatova Gulnoz Mirakhrarovna

Professor of the Department of Social Sciences,

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” non-government

higher education institution

Email: gulnoz68@mail.ru

STRUCTURE OF HUMAN PSYCHOLOGY IN SIGMUND FREUD'S PSYCHOANALYSIS

Annotation: In the second half of the 19th century, when psychology separated from philosophy and became an independent science, its main goal was to identify the basic elements of the mental life of an adult using the method of self-analysis in laboratory conditions. Wilhelm Wundt founded the first psychological laboratory in Leipzig in 1879. Wundt suggested that the main task of psychology is to divide the process of consciousness into parts and study the natural connections between them. Therefore, when a completely new approach to studying people appeared, developed by the young Viennese doctor Sigmund Freud without anyone's help, psychologists of that time fell into a state of stupor. Instead of placing consciousness at the center of human mental life, Freud compares it to an iceberg, only a small part of which sticks out of the water. Contrary to the hitherto prevailing idea of man as a rational being capable of understanding his own behavior, he proposed a different theory: people are in a constant state of conflicts, and the cause of these conflicts lies in a completely different, broader area.

Key words: psychoanalysis, unconscious, conscious, libido, Id, subconscious, preconscious, superconscious.

Kirish

Zigmund Freydning (1856-1939) ta'limotini tan olmay turib, zamonaviy shaxs nazariyalarini obyektiv baholab bo'lmaydi. Uning u yoki bu (yoki hamma) g'oyalari tan olinishi yoki tan olinmasligidan qat'i nazar, Freydning XX asr G'arb sivilizatsiyasiga ko'rsatgan chuqur va mustahkam ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, insoniyatning butun tarixi davomida kamdan-kam g'oyalar shunchalik keng va kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Uning inson tabiatiga nisbatan o'ziga xos qarashlari o'sha davrda hukmron bo'lgan tasavvurlarga keskin zarba berdi: Freyd insonning qorong'i, yashirin, demak, anglab bo'lmas deb hisoblangan ruhiy hayoti qirralarini tushunishga erishish qiyin, lekin jalb qiluvchi yo'lini taklif qildi. O'zining 45 yillik samarali ilmiy faoliyati davomida Zigmund

Freyd: birinchidan, shaxsning keng ko‘lamli nazariyasini; ikkinchidan, o‘zining terapevtik tajribasi va o‘zini o‘zi tahlil qilishga asoslangan klinik kuzatishlarning keng miqyosli tizimini; uchinchidan, nevrotik buzilishlarni davolashning o‘ziga xos usulini; to‘rtinchidan, boshqa hech qanday usul bilan o‘rganib bo‘lmaydigan ruhiy jarayonlarni tadqiq qilish usullarini yaratdi.

Zigmund Freyd yaratgan ta’limotning o‘zagini tashkil qiluvchi ruhiy tahlil atamasi uch xil mazmunni anglatadi: 1) shaxs va psixopatologiya nazariyasi; 2) shaxs buzilishlari terapiyasi va 3) individumning anglanmagan fikrlari hamda hissiyotlarini o‘rganish usuli. Nazariyaning terapiya va shaxs o‘lchovi un i bunday bog‘lanishi Freydning inson xulqi haqidagi tasavvurlarining barcha qismiga xosdir. Freydizm tuzilishi va yaqin maqsadiga ko‘ra individlar ruhiyatini o‘rganishga va davolashga yo‘naltirilgan. Lekin bu ta’limot avvaldan ijtimoiy ongning hozirgi un iva o‘tmishini tushuntirib beradi. Freydning fikricha, jinsiy mayllarni ong ostiga siqib chiqaradigan va nevrozlar keltirib chiqaradigan taqiqlar, mohiyat jihatidan insoniyat tarixining boshlanishida paydo bo‘lgan axloqiylik va huquqning ijtimoiy normalaridan boshqa narsa emas. Freyd ularni «madaniy taqiqlar» deb atagan va nima uchun, qanday sharoitda ular paydo bo‘lgan, mustahkamlangan, rivojlanganligini aniqlash nihoyatda muhim, deb hisoblagan.

Adabiyolar tahlili

Avstriyalik ruhiyatshunos, faylasuf-olim Zigmund Freydning ijodi falsafiy, madaniy, diniy adabiyotlarda, jumladan, ruhiy tahliliy adabiyotlarda ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Zigmund Freydning ijodini har tomonlama yorituvchi V.M.Leybin, V.M.Morozov, K.I.Sobol, X.Dmitrov, T.A.Kuzmina, A.YE.Sheroziya, S.A.Tokarev, M.N.Afasijev, G.Uells, V.Xollicher va boshqa rus tadqiqotchilari ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda mutafakkirning ijtimoiy-

falsafiy dunyoqarashi, din haqidagi ta'limoti, ijtimoiy-estetik va ruhiy tahliliy merosi aks etgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, sistemalilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, germeneytik tahlil, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tahlillar va natijalar

Zigmund Freyd psixologiya obyekti sifatida, odatda, jismonan va ruhan sog'lom normada bo'lgan insonni olgan va ong fenomenini, hodisasini o'rgangan. Ruhiy ongsizlikni tahlil qilish esa inson psixikasini, ruhiyatini faqat ongga taalluqli deb bo'lmasligi haqidagi falsafiy mulohazalar tufayli, yoki individning ongsiz harakatlantiruvchilariga oid fiziologik tadqiqotlar tufayli cheklangan bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi nevrologik tadqiqotlar an'anaviy tan olingan tafakkur normasidan chetlashgan patologik qusurlarga o'z diqqatini qaratadi va shunda shaxsning ichki ruhiyati xususiyatlarini kasallik alomatlari nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarurati tug'ilganligini anglab yetadi. Bu esa o'z o'rnida, inson faoliyatini yashirin motivlarini o'rganishni takozo qilar edi. Jumladan, shaxsning chuqur ichki tuzilmasini o'rganish, tadqiqotchini doimo ong bilan qoplanmagan yoki insondagi aqllilik sohasi bilan to'knashtiradi.

Freyd psixopotolog sifatida nevrozlarning kelib chiqish sababini va xususiyatini o'rganar ekan ruhiyat tabiatini ichiga kirish zaruratini doimo his qiladi, bu esa insondagi «onglilik» ruhiy tuzilmasida yoritilmagan edi. Shunday qilib, qo'yilgan vazifa va tadqiqot obyekti o'zi olimni inson harakatidagi onglilik bilan bir qatorda, o'ziga xos tomoni ham borliginidan olishga olib keladi.

Ruhiy tahlildagi ongsiz ruhiy faoliyat ma'lum ma'noda Kant tomonidan kiritilgan tashqi qabul qilish tushunchasiga o'xshab ketadi. Kant insoniy qabullashning shartli subyektivligini, ya'ni qabul qiluvchi bilan qabul

qilinuvchining aynan emasligini ta'kidlagani kabi, Freyd ham ongli tasavvur bilan ongsiz ruhiy jarayonni aynanlashtirish mumkin emasligiga diqqatini qaratadi. Ongsizlik ong uchun obyekt bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ong tomonidan ruhiy jarayonlarni qabul qilishi xuddi hissiyot organlari orqali tashqi dunyo obyektlarini qabul qilishga o'xshatiladi. Shunday ruhiy tahlilning birinchi xulosasi kelib chiqadi, «hamma ruhiy jarayonlar mohiyatidan ongsizdir», «ongli jarayonlar esa bizning hamma ruhiy faoliyatimizning alohidagi namoyonidir» [1]. Ana shu asoslardan kelib chiqib Freyd xulosa qiladi, insoniy ruhiyat turli komponentlardan tashkil topgan, shunday yaxlitlikni tashkil qiladiki, o'z xususiyatiga ko'ra ular nafaqat ongli, balki ongsiz va ong oldi ham bo'lishi mumkin.

Ruhiyatni ongga va ongsizlikka ajratilishida, yuqorida aytilganidek, Freyd birinchilardan bo'lmagan. U bunga da'vogarlik ham qilmaydi. Ongsizlik tushunchasi ko'pgina shoirlar, faylasuflarning iboralarida uchraydi. Ular bu tushunchani inson ichki olamini o'rganishda qanchalik ahamiyati katta ekanligini anglab yetganlar. Biroq ongsizlikni freydcha tushunish, boshqa falsafiy sistemalar talqinidan farq qiladi. «Freyd uchun, - deb yozadi tadqiqotchilardan biri, - ongsizlik dalillar yig'indisidir, insoniy ruh «sohasi»dir va insoniy faoliyatning ajralmas qismidir» [2]. Uni birinchi bo'lib ongsizlikning konkret mazmuni qiziqtiradi. Ongsiz jarayonlarni mazmunini ochish uchun, u ongsizlikni ikki tahliliy qismlarga ajratadi. Freyd, birinchidan, latent, yopiq ongsizlikni: nimadir haqida ongli tasavvur, keyinchalik ongsizlikka aylanadi, lekin ma'lum sharoitda yana ongli bo'lishi mumkin; ikkinchidan, siqib chiqarilgan ongsizlik: ongli bo'la olmaydigan tasavvurlar, chunki unga qandaydir kuch qarshilik ko'rsatadi, lekin ana shu qarshilik ko'rsatuvchi kuchni maxsus ruhiy tahliliy muolaja orqali ongsiz tasavvurlarni ong darajasiga ko'tarish mumkin. Ongsizlikni birinchi turini Freyd siqib chiqarilgan ongsizlik bilan ongsiz ruhiyat o'zidan farqlash uchun ong oldi, deb ataydi. Ruhiy tahlil asosan shu bilan shug'ullanadi.

Freyd ta'limotidagi «onglilik», «ongsizlik» va «ong oldi» uch tizimni tashkil qiladi. Ular insonning hamma ruhiy hayotini qamrab oladi. Freyd faqat ruhiy

harakatlarni bir tizimdan ikkinchisiga qanday qilib o'tishini bayon qilib berish bilan cheklanib qolmaydi, balki bu sistemalarni ishlash mexanizmini ochib berishga harakat qiladi. Ana shunday vazifaning qo'yilishining o'zi ruhiy tahlilni «bayon qiluvchi psixologiya»dan ajratadi. Freydning o'zi ruhiy tahlilni xuddi shunday psixologiyaga qarama-qarshi qo'yadi [3].

Freyd ongsizlik sohasini tadqiq qila turib, ko'pgina o'tgan olimlar singari, inson qanday qilib o'z ongsiz tasavvurlarini muhokama qilishi mumkin degan muammoni ko'taradi. Garchi ongsizlik ong predmeti bo'lmasa, inson tomonidan anglanmasa, ongsiz tasavvurlarni inson ruhiyatida mavjudligi haqida gapirish mumkinmi? Ongsiz tasavvurlarni inkor qiluvchi faylasuflar bilan keskin bahs yuritib, Freyd o'zining nazariy pastulati asosiga ongsiz ruhiy faoliyat tushunchasini qo'yadi.

Bunda olim ilgarigi faylasuflarning ruhiy ongsizlikning mavjudligi haqidagi mavhumlashgan mulohazalari o'rniga, u nevrosteniyaga duchor bo'lgan bemorlarni koinik kuzatuv natijasida olingan konkrit materiallarga tayanadi. Freyd shunday xulosaga keladi, ongsizlik har bir individ ruhiy faoliyatining ajralmas, zaruriy sohasidir: har qanday ruhiy harakat, avval ongsizravishda boshlanadi, keyinchalik anglanadi, biroq oldida o'tib bo'lmas to'siqqa uchrasa, ongsizlik darajasida qolaverishi ham mumkin. Shunday qilib, Freyd takrorlab aytamiz, inson ruhiyatida ongsiz tasavvurlarni mavjudligini bayon qilib qolmay, balki ruhiy harakatni ongsizlik sohasidan ong tizimiga o'tish mexanizmini ochib berishga intildi.

Dastlab Freyd, qanday qilib ongsiz tasavvurlar individ hayotiy faoliyatida namoyon bo'ladi va qanday tarzda ruhiy ongsizlikni bilish mumkin degan savolga javob berishga harakat qiladi. Mohiyatan, bu Loka tomonidan o'sha davrda qo'yilgan savolga, o'ziga xos yechim topish edi: «anglamagan narsamizni biz qanday qilib bilishimiz mumkin?» Uni hal qilish uchun ko'pgina faylasuflar bosh qotirganlar, lekin bu urinishlardan jiddiyoq natija chiqmagan.

Freyd ongsizlikni faqat ongga ko'tarish yo'li orqali bilish mumkinligini tushungan. Lekin qanday yo'l bilan bu mumkin, qanday qilib biron narsani ongga

aylantirish mumkin? lekin shunday faraz qilish mumkin, ichki ongsiz harakatlar ong darajasiga ko'tariladi yoki, aksincha, ongning o'zi ongsizlik sohasiga kiradi va u yerda shu harakatlarni «ilg'aydi», biladi. Bunday faraz yuqorida qo'yilgan savolga javob bermaydi. Jumboqni qanday yechish mumkin? Freyd yechim topganday bo'ladi, bu haqida bir paytlar Gegel ham gapirgan edi, agar savolga javob topilmas, uni boshqacha qo'yish kerak. Gegelga ilova qilmasdan, Freyd xuddi shunday harakat qiladi. «O'anday qilib hamma narsa onga aylanadi?», degan savolni «O'anday qilib biron-bir narsa ong oldida bo'ladi?», - deydi. Freyd uchun ong oldi, undan so'ng ongli bo'lish uchun, u oldin ongli tarzda qabul qilingan, keyin vaqt o'tib xotiradan ko'tarilgan bo'lsa ham, qandaydir darajada iz qoldirgan.

Freydning ong oldini anglash haqidagi ta'limoti, Aflotun tafakkur tomonidan qachonlardir jonda bo'lib o'tgan hodisalarni esga olish bilimni tashkil qiladi, degan qarashiga juda o'xshab ketadi. Ma'lum bo'lishicha, aflotuncha bilish nazariyasi shunday asosga qurilgan edi-ki, go'yo inson qalbida xira bilimlar joylashgan, ularni xotira keltirib, ong obyektiga aylantirish lozim. Freyd o'zining ruhiy tahlil nazariyasi asosiga shunday asosni qo'yadi. Faqat farqli tomoni shundaki, Aflotun obyektiv olamiy jonning mavjudligidan kelib chiqadi, narsalar dunyosi esa ideal tarzda inson qalbida joylashgan, deydi. Freyd bulsa, predmetli ongsiz tasavvurlar haqida gapiradi, ular inson ruhiyatidan joy olgan. Mumtoz ruhiy tahlil asoschisi uchun esa ongli va ongsiz tasavvurlar turli ruhiy sistemalarning bir xil mazmundagi «yozuvi» emas: ongli tasavvurlar o'z ichiga predmetli, shakllangan muayyan so'zga ega bo'lgan tasavvurlardir, ongsizlik esa – faqat predmetli tasavvurlardan iborat. Freyd ruhiy tahlildagi ongsizlik bilan «tanishish» jarayoni mavjud bo'lgan predmetli tasavvurlar so'zli shakl olgandagina sodir bo'ladi. Shuning uchun ham Freyd til va lingvistik tuzilmalarga jiddiy ahamiyat beradi, chunki ular inson ongidagi iztirobli ikkilanishning mazmunini ochishga yordam beradi. «Erkin assotsiatsiya» uslubi ham aynan, Freyd fikricha, ixtiyoriy ravishda og'izdan chiqib ketgan har qanday so'z, predmetli ruhiy ongsizlik mazmunini ochishga muayyan ahamiyatga egaligiga asoslangan.

An'anaviy savolni yangicha qo'yish Freyd ruhiy sistemalardagi onglik va ongsizlik darajasida shakllangan predmetli va so'zli tasavvurlar munosabati muammosini hal qildi. Lekin mazkur mazmunlarning ma'nosi va ongsizlik «izlari» timsolini ochish ruhiy ongsizlikni anglashni to'la-to'kis hal qilmadi. Gap shundaki, inson nutqida aks etuvchi so'zli tasavvurlarni talqin qilish juda erkin holda amalga oshiriladi, chunki, bir tomondan, tadqiq qilinuvchining individual-shaxsiy nutqi ko'p holda, haqiqatdan yiroqda bo'lib, bo'rttirilgan bo'ladi [4], boshqa tomondan esa nutqiy, tilli materialni tushunish ruhiy tahlilchining subyektiv mulohazasiga bog'liq. Yana shu narsa oynadek ravshanki, ongsizlikning timsoliy «tilini» talqin qilishda bunday erkinlik yanada kengayadi.

Shunday qilib, ruhiy tahlilchi tomonidan belgilanuvchi predmetli tasavvurlarni so'z orqali ifodalanishi bilan hali ongsizlik anglandi, deb bo'lmaydi, lekin uning imkoniyati uchun asos yaratadi. Freydning o'zi shu narsani tan oladiki, u tahlil qilayotgan vaziyatni gipotetik imkoniyat sifatida ko'rish mumkin, zaruriy va haqiqiy deb emas [5]. Bundan tashqari, shu zarurki, garchan predmetli tasavvurlar so'zlar bilan birgalikda ong oldi sistemasida uchrar ekan, ongsizlikning bitta turini anglash imkoniyati haqida gap ketadi, Freydning terminologiyasi bo'yicha, ong oldi haqida, lekin siqib chiqarilgan ongsizlik haqida emas. Bu yerda paradoksal vaziyat tug'iladi, qachonki Freyd ongsizlikni nazariy jihatdan anglash haqida gapirib, ong oldini nazarda tutadi. Amaliyot esa ong oldini emas, balki siqib chiqarilgan ongsizlik bilan ishlaydi: ruhiy tahlilning terapevtik davolash uslubi aynan siqib chiqarilgan ongsizlikni shaxsning ong darajasiga ko'tarishga asoslangan. Bu yerda ruhiy tahliliy sistemadagi mantiqda ziddiyat yaqqol ko'rinadi: ruhiy ongsizlikni anglash imkoniyati haqidagi masalani hal qilish uchun Freyd, ongsizlik tizimidagi o'zi farqlagan ikki turni inobatga olmaydi. U ruhiy ongsizlikni tahlil qilishdagi differensial yondashuvni oxirigacha olib bormaydi. Olimning o'zi tan olishga majbur bo'ladi, ko'rgina faylasuflar kabi ya'ni ruhiy tahlilchi ongsiz harakatlar sohasini ko'rsatishi mumkin, lekin «ongsizlikning o'zi nima, aytolmaydi» [6].

Ba'zi hollarda Freyd maqsadli ravishda ongsizlikni farqlanganligini e'tiborga olmaydi. Olim tomonidan ongsizlik va ong oldiga ajratilgan ruhiy sistemalarni, uning o'zi shaxsning ruhiy tizilmasidagi ongsizlik bilan ongning o'zaro munosabatini tahlil qilayotganda qo'shib yuboradi. Umumiy ko'rinishda inson ruhiyati Freyd tasavvurida, ikki bir-biriga zid ongsizlik va onglilik sohalarini tashkil qiladi. Ular shaxsning freydcha shaxs strukturasida bu sohalar barobar tarzda namoyon bo'lmaydi: ongsizlikni u inson ruhiyatini mohiyatini anglatuvchi markaziy komponent, deb hisoblaydi, onglilikni esa – ongsizlikni ustqurmasi, deb ataydi; o'zining kelib chiqishi bilan onglilik ongsizlikka tayanadi, ruhiyatning rivojlanishi jarayonida undan ajralib chiqib boshlaydi.

Garchan Freydning nazariy faoliyati davomida [7] inson ruhiyatini tuzilmaviy darajalari haqidagi tasavvurlari o'zgarib borgan bo'lsa ham, lekin olim tomonidan taklif qilingan shaxs modellarining hammasida ruhiyatni onglilik va ongsizlik sohalariga ajratish prinsipial tarzda saqlanib qolgan. Inson ruhiyatiga differensial yondashuv Freydning quyidagi asarlarida uzil-kesil hal qilinadi: «Lazzatlanish tamoyilining narigi tomoni» (1920), «Ommaviy psixologiya va insoniy «Men»ning tahlili» (1921), ««Men» va «U»» (1923).

Bu yerda Freyd tomonidan tuzilgan shaxs modeli uch element kombinatsiyasidan iborat, ular bir-biri bilan o'zaro bo'ysinuvchanlik munosabatida bo'ladi. «U» (Id) – ongsiz intilishlarning chuqur qatlamidir, ruhiy «o'zlik»dir, u faol individning shunday ruhiy instansiyasi markaziki, u faqat o'z shaxsiy qonunlari bilan ish ko'radi, shaxsning boshqa tashkil qiluvchi qismlari qonuniyatlaridan farqlanadi; «Men» (Ego) – ong sohasidir, u ongsizlik, insonning ichki dunyosi bilan tashqi reallik o'rtasidagi, xuddi shunday tabiiy tuzilmalar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi vositachidir, u ongsizlikni berilgan reallik bilan, maqsadni tashqi zarurat bilan qiyoslaydi; «Yuqori-Men» (Super Ego) – shaxs ichidagi vijdon, bu markaz jamiyat normalarini o'zida mujassam etadi, bu o'ziga xos axloqiy senzura, u ongsizlik va ongning o'rtasidagi hal qilib bo'lmaydigan to'knashuvning vositachisi sifatida vujudga keladi, ong insonning ongsiz

intilishlarini, junbushini (poriv) xohishini jilovlay olmaydi, madaniy va ijtimoiy reallik talablariga bo'ysindira olmaydi.

Freyd inson ruhiyatini ishlash mexanizmini ochib berishga harakat qiladi. Bunda olim inson qalbining eng tubidan joy olgan tabiiy qatlam – «U»ni asos qiladi. «U» ixtiyoriy ravishda ko'proq lazzatlanish programmasi bo'yicha ishlaydi. Zotan, inson o'z ehtiroslarini tuyg'ularini qondira olmay, «U»ga qarama-qarshi turuvchi tashqi reallikka duch keladi, unda «Men» yordamga kelib, ana shu ehtirosni jilovlab, ijtimoiy tan olingan xulq-atvor normalariga moslashtiradi. Dastlab nazar tashlanganda, «Men» onglilikning ibtidosi ko'rinadi. Ana shu boshlang'ich «U»ni harakatga keltirib, o'z yo'nalishini o'zgartirishga olib kelib ijtimoiy borliq normalariga bo'ysindiradi. Biroq freydcha shaxs strukturasi boshqacha tus oladi: «U»ni «Men» boshqarmaydi, aksincha, «U» zimdan o'z shartlarini «Men»ga hukm qiladi. Bu munosabatlarni yuqorida keltirganimizdek Freyd chavandoz va asov tulpor timsollari orqali ifodalaydi.

Demak, ongsiz intilishlarning itoatkor xizmatkori sifatidagi freydcha «Men» «U» bilan tashqi dunyo o'rtasidagi kelishuvchanlikni saqlab turadi. Jumladan, bu bitim doim ham amal qilavermaganligi tufayli, freydcha shaxs modelida yana bir tizim «Oliy-Men» yoki «Ideal-Men» paydo bo'ladi, u vijdon yoki mas'uliyat hissi orqali «Men» ustidan hukmronlik qiladi. Freydcha shaxs modelida «Oliy-Men» yuqori mavjudot sifatida ijtimoiy tadqiqatlarni, qonun-qoidalarni, nufuzli shaxs va ota-ona irodasini ifodalaydi. Agar «Men» - tashqi dunyo vakili bo'lsa, «Oliy-Men» bo'lsa «Men»ga nisbatan «U» manfaatini himochisi sifatida namoyon bo'ladi. Inson ruhiyatidagi o'rni va vazifasiga ko'ra «Oliy-Men» ongsiz intilishlarini, ijtimoiy qabul qilinuvchi «Men» impulsiga yo'naltiradi. Shu ma'noda «U»ning xohishlarini jilovlashda «Men» bilan birlashadi. Lekin freydcha «Oliy-Men» «U»ga yaqinroq munosabatda bo'ladi, chunki «edip kompleksi»ning meroshuridir, shuning uchun ham «U»ning hamma harakatlarini va «libido»ni taqdirini belgilaydi [8]. «Oliy-Men» ba'zida «Men»ga qarshi ham turadi, shunda nifoqli vaziyat yuzaga keladi va inson ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Shunday qilib, freydcha «Men» «baxtsiz ong» timsolida namoyon boʻladi. U xuddi lokator singari «U» va «Oliy-Men» bilan doʻstona kelishuv munosabatini saqlab qolish uchun to bir, to boshqa yoqqa ogʻishga majbur boʻladi. Demak, Freyd ongsizlikning «nasliyiligini» va «tabiiyligini» tan olsa ham, olim ongsizlikni anglash qobiliyatiga ishonadi. Bu quyidagi formulada ifodalandi, «Qayerda «U» boʻlsa, oʻsha yerda «Men» ham mavjud» . Ruhiy tahlilning vazifasi inson ruhiyatidagi ongsizlik holatlarini ong sohasiga oʻtkazishdan iborat. Bunda ongsizlik tabiatini ochish insonni ehtiroslarini jilovlash va real hayotda ularni nazorat qilish uchun zarur boʻladi. Freydcha ruhiy tahlilning asl maqsadi shundan iborat boʻlgan.

Xulosa

Shunday qilib, umumiy xulosa qiladigan boʻlsak, inson ruhiy olamini tahlil qilish uzoq tarixga borib taqaladi. Mazkur hodisani koʻpgina faylasuf-mutafakkirlar, ruhiyatshunoslar, mediklar, fiziologlar, antropologlar chuqur oʻrganib chiqqanlar. Madaniyat genezisida ham inson ruhiyatini shakllanishi evolyusiyaga uchragan. Uning diniy, falsafiy, maʼnaviy, ijtimoiy ildizlari chuqurdir. Shuning uchun ham mazkur muammoni tahlil qilishda tadqiqotchiga, zaruriy ravishda keng dunyoqarashga egalik qul keladi. Jumladan, ruhiy tahlilni ana shunday chuqur tadqiq talab muammo sifatida ilgari surgan olim Zigmund Freyd boʻladi. Bunda uning xizmati kattadir. Keyinchalik olimning shogirdlari mazkur muammoni yanada chuqurroq oʻrganib, ruhiy tahlilni fan darajasigacha koʻtarilishiga sababchi boʻldilar. Keyingi boblarda ana shuni yanada kengroq ravishda koʻrib chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фрейд З. Лекции по введению в психоанализ. – Т. 1. – М.:Мысль, 1923. – С. 28.
2. Wolman B. The Unconscious Mind. The Meaning of Freudian Psychology. New Jersey, 1968. – P. 4.
3. Фрейд З. Основные психологические теории в психоанализе. – М.: Думка, 1923. – С. 132.
4. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Наука, 1974. – С. 117.

5. Фрейд З. Основные психологические теории в психоанализе. – М.: Думка, 1923. – С. 158.
6. Фрейд З. Психологические этюды. – Одесса, 1926. – С. 15.
7. Gedo J. and Goldberg A. Models of the Mind. A Psychoanalytical Theory. Chicago. – London, 1973.
8. Фрейд З. Я и Оно. – М.: Думка, 1923. – С. 34.
9. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7). 444-448.
10. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.
11. Rakhimdjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.